

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining
2023-yil 6-yanvardagi 2-um-son buyrug‘iga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining ayrim buyruqlariga
kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 5-sentabrdagi 207-um-son “2022/2023 o‘quv yilida Adliya vazirligi yuridik texnikumlarining 1-kursiga o‘quvchilarni qabul qilish to‘g‘risida”gi buyrug‘ining 3-bandi beshinchi xatboshisidagi “miqdori joriy yilning 1-dekabr kundan” degan so‘zlar “miqdorining kamida 50 foizi 2023-yil 20-yanvar kundan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 7-sentabrdagi 209-um-son “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlarida 2022/2023 o‘quv yili uchun to‘lov-kontrakt shaklida o‘qitish miqdorlarini belgilash haqida”gi buyrug‘ining 2-bandi to‘rtinchi xatboshisidagi “1-dekabrdan” degan so‘zlar “2023-yil 20-yanvardan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.